

**AHOLI VA HUDUDLARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA
QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA AMALGA OSHIRISH
MEKANIZMLARI**

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И МЕХАНИЗМЫ
ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ И ТЕРРИТОРИЙ ОТ
ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ**

**TRANSLATION PRIORITIES AND MECHANISMS
IMPLEMENTATION OF PROTECTION OF THE POPULATION AND
TERRITORIES FROM EMERGENCY SITUATIONS**

Maxmudov Alimdjon Abdualiyevich
O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi
fuqaro muhofazasi instituti katta o'qituvchisi

Махмудов Алимджан Абдуалиевич
Старший преподаватель Института гражданской защиты при
Академии МЧС Республики Узбекистан

Maxmudov Alimdjon Abdualiyevich
Senior lecturer at the Institute of Civil Protection at the Academy
of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi islohotlar strategiyalar va mexanizmlar xususida batafsil muhokama qilingan. Davlat rahbarining 2025 yil 20 oktabrdagi farmoniga asosan, sohada yangi standartlar, profilaktika tadbirlari va davlat nazoratining samarali mexanizmlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Maqolada, aholi va hududlarni muhofaza qilishning ustuvor yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar va dual ta'limga asoslangan kadrlar tayyorlash tizimiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, profilaktika choralarining «mahallabay» tartibda joriy etilishi va xavf manbalariga asoslangan hududlarni tasniflash tizimi kabi muhim mexanizmlar o'rganilgan. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdagi huquqiy tartib, kadrlar tayyorlash va sohaviy hamkorlikning ahamiyatiga ham to'xtalib o'tilgan.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются реформы, стратегии и механизмы Республики Узбекистан в области защиты населения и территорий от чрезвычайных ситуаций. В соответствии с указом Главы государства от 20 октября 2025 года предусмотрено внедрение новых стандартов, профилактических мер и эффективных механизмов государственного контроля в этой области. Особое внимание уделяется приоритетным направлениям защиты населения и территорий, инновационным технологиям и системе подготовки кадров на основе дуального образования. Также изучены важные механизмы, такие как внедрение профилактических мер в виде «махаллабай» и система классификации территорий по источникам опасности. Обсуждается также важность правопорядка, подготовки кадров и отраслевого сотрудничества в защите от чрезвычайных ситуаций.

Abstract. This article examines in detail the reforms, strategies, and mechanisms of the Republic of Uzbekistan in the area of protecting the population and territories from emergency

situations. The decree of the Head of State of October 20, 2025, provides for the introduction of new standards, preventive measures, and effective state control mechanisms in this area. Particular attention is paid to priority areas for protecting the population and territories, innovative technologies, and a system of personnel training based on dual education. Important mechanisms, such as the introduction of preventive measures in the form of "mahallabai" and a system for classifying territories by hazard sources, are also examined. The importance of law and order, personnel training, and industry cooperation in emergency protection is also discussed.

Tayanch soʻzlar: Favqulodda vaziyatlar, profilaktika tadbirlari, innovatsion texnologiyalar, davlat nazorati, qonuniy tartibga solish, mahallabay profilaktika, xavf manbalari, zamonaviy standartlar, dual taʼlim.

Ключевые слова: Чрезвычайные ситуации, профилактические меры, инновационные технологии, государственный контроль, правовое регулирование, махаллабай, источники опасности, современные стандарты, дуальное образование.

Keywords: Emergencies, preventive measures, innovative technologies, state control, legal regulation, mahallabai, hazard sources, modern standards, dual education.

Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 20 oktabrdagi «Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish toʻgʻrisida»gi PF-185-sonli Farmoniga asosan mamlakatimizda aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilishda ilgʻor xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda ilmiy-texnik yondashuvlar asosida samarali profilaktika va davlat nazoratining yangi mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish hamda sohaga zamonaviy raqamli yechimlarni joriy etish boʻyicha milliy tajribani yaratish maqsadida ushbu sohadagi islohotlarning bir qator ustuvor yoʻnalishlari belgilandi [1].

Jumladan, hududlarda favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish va oqibatlarini kamaytirish faoliyatini ustuvor vazifa sifatida qabul qilish orqali mahallalar darajasida keng qamrovli profilaktika mexanizmlarini yaratish va samarali tatbiq qilish, energetika, yirik ishlab chiqarish, qurilish va xizmat koʻrsatish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfni boshqarish, texnogen avariylarni oʻz vaqtida bartaraf etishning yangi standart hamda metodikalarini ishlab chiqish va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida harakatlanish amaliyotida yoʻlga qoʻyish, favqulodda vaziyatlar yoʻnalishida davlat nazorati shakllarining talablari hamda meyorlarini zamon talablariga mos ravishda qayta koʻrib chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini transformatsiya qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar tizimini belgilash shular jumlasiga kiradi.

Mazkur Dasturulamal hujjatga koʻra, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimining inson qadrini taʼminlash (inson hayoti va sogʻligʻining ustuvorligi), profilaktik tadbirlarning ustuvorligi, oshkoralik va shaffoflik, hamjihatlikda samarali harakatlanish, sansalorlik va ziddiyatlarga yoʻl qoʻymaslik kabi prinsiplari belgilab berildi. Shu jihatdan favqulodda vaziyatlardan muhofaza

qilishni huquqiy tartibga solinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bu aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar orqali qonun bilan belgilangan normalar va qoidalar yig'indisi deb ta'rif berish mumkin. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilishni huquqiy tartibga solish quyidagi xususiyatlarga javob beradi:

1. Ushbu sohadagi huquqiy tartibga solish ijtimoiy tartibga solishning bir turi bo'lib, u hayotning turli sohalarida, jumladan, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilishni tartibga solishni o'z ichiga oladi;

2. U maqsadga yo'naltirilgan - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga, ularni himoya qilishga va himoya qilishga, yuridik shaxslarning buzg'unchi xatti-harakatlari va faoliyatini siqib chiqarishga va blokirovka qilishga hamda ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan;

3. Huquqiy tartibga solish orqali subyektlar o'rtasidagi munosabatlar dastlab davlat-vakolatli xususiyatga ega bo'lgan o'ziga xos huquqiy shakllarga ega bo'ladi. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilishni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyati, bir tomondan, kafolatlangan mumkin bo'lgan xatti-harakatlar turlari va doirasini belgilashdan, ikkinchi tomondan, zarur bo'lgan xatti-harakatlar turlari va doirasini belgilashdan iborat;

4. Huquqiy tartibga solish o'ziga xos xususiyatga ega, chunki u har doim real hayotdagi munosabatlar bilan bog'liq;

5. Huquqiy tartibga solish maqsadli - yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini qondirishga qaratilgan [2].

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bu insonlarni, mol-mulkni, tabiatni va infratuzilmani favqulodda vaziyatlardan (masalan, tabiiy ofatlar, texnologik avariylar, harbiy holatlar) himoya qilish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimidir.

Bu tizimga kirish mumkin bo'lgan asosiy elementlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Favqulodda vaziyatlarning aniqlanishi - qanday vaziyatlar favqulodda deb hisoblanadi va ularning toifalari. Jamoat xavfsizligi - odamlarning xavfsizligini ta'minlash uchun tadbirlar, evakuatsiya qilish, xavfli zonadan olib chiqish. Muhandislik va texnik himoya - turli inshootlar, yoki mexanizmlarni, injiniring tizimlarini xavfdan himoya qilish. Tibbiy yordam va sanitariya - favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmatlarni tashkil qilish, yordam ko'rsatish. Ma'lumot tarqatish- aholiga favqulodda vaziyatlar haqida xabar berish va ularga qanday harakat qilishni ko'rsatish. Shunday qilib, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimi davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning hamkorligi bilan amalga oshiriladi.

Uning maqsadi jonli va jismoniy zararni kamaytirish, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlashdir [3]. Davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etgan Farmonida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining

ustuvor yoʻnalishlari sifatida quyidagilar belgilab berilgan. Birinchidan, «Favqulodda vaziyatdan muhofazalangan mahalla» tamoyili asosida favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlari natijadorligini oshirish boʻyicha «mahallabay» kompleks profilaktika tadbirlarini amalga oshirish; Ikkinchidan, kun sayin rivojlanayotgan ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish industriyasini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish boʻyicha yangicha yondashuvlarning, shuningdek, ularda roʻy berishi mumkin boʻlgan xavflarni bartaraf etishning zamonaviy texnika va texnologiyalarini joriy etish;

Uchinchidan, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida dual taʼlimga asoslangan oʻrta boʻgʻin va yuqori malakali professional kadrlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini hamda taʼlim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish boʻyicha yaxlit tizimni yoʻlga qoʻyish;

Toʻrtinchidan, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash samaradorligini oshirish;

Beshinchidan, favqulodda vaziyatlar tahdidining oldini olish, bartaraf etish, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida ilm-fan, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlikka asoslangan innovatsion ishlab chiqarish zanjirini yoʻlga qoʻyish;

Oltinchidan, favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozi, shuningdek, favqulodda vaziyatlar xavfini bartaraf etishda kuch va vositalarni boshqarish, muvofiqlashtirish hamda ularning faoliyatini raqamlashtirish sohasiga sunʼiy intellekt, robototexnika va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish;

Yettinchidan, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bilan bogʻliq kechiktirib boʻlmaydigan tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Sakkizinchidan, energetika, transport, hayot maromini taʼminlovchi va boshqa muhim iqtisodiyot obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfni boshqarish hamda texnogen avariylarni bartaraf etish;

Toʻqqizinchidan, favqulodda vaziyatlar boʻlinmalarining takrorlanuvchi funksiyalarini maqbullashtirish, kuch va vositalar boshqaruvini muvofiqlashtirish.

Oʻz navbatida «Favqulodda vaziyatdan muhofazalangan mahalla» tamoyili asosida favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlari natijadorligini oshirish boʻyicha «mahallabay» kompleks profilaktika tadbirlarini amalga oshirish quyidagi mexanizmlarni koʻzda tutadi:

har bir hududning oʻziga xosligidan kelib chiqib, favqulodda vaziyatlar xavf manbalari, ularning monitoringi va prognozlari asosida joylarda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan real tahdidlarni aniqlash;

favqulodda vaziyatlar xavf manbalarining prognozlari asosida hududlar va obyektlarni tasniflab, belgilangan mezonlarga muvofiq mahallalarni «qizil», «sariq», «yashil» toifalarga ajratish va favqulodda vaziyatlarning

oldini olishning texnik-profilaktik hamda boshqa chora-tadbirlarini ularning tasnifiga ko'ra belgilash;

«mahalla yettiligi», mahalla faollari, ko'chaboshi, uyboshilar bilan birgalikda aholini keng jalb qilgan holda favqulodda vaziyatlarning texnikprofilaktik tadbirlarini xavf manbai yuqori bo'lgan xonadonlarda tashkil etib, bajarilgan ishlar natijadorligini tanqidiy tahlil qilib borish;

texnik-profilaktik tadbirlarni o'tkazishda, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga (Ijtimoiy reyestrga kiritilgan va ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar) asosiy e'tiborni qaratib, mas'ul xizmatlarni jalb qilish orqali mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida dual ta'limga asoslangan o'rta bo'g'in va yuqori malakali professional kadrlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini hamda ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha yaxlit tizimni yo'lga qo'yishda quyidagi mexanizmlarni qayd etish mumkin: sohada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yaxlit tizimini yo'lga qo'yish maqsadida sohaviy o'quv muassasalari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish;

o'quv jarayonini dual ta'lim tizimida tashkil etish, simulyatsiya, imitatsiya va virtual laboratoriyalar (poligon)ni tashkil etish orqali nazariya va amaliyotning uyg'unligini ta'minlash;

ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion o'qitish texnologiyalarini keng tatbiq etish, shu jumladan, masofaviy o'qitish platformasini joriy etish;

ta'lim muassasalariga yuqori malakali professor-o'qituvchilar, shuningdek, ta'lim jarayoniga xorijiy ta'lim, ilmiy-amaliy va ilmiytadqiqot muassasalari mutaxassislari va ekspertlarini jalb qilish;

ilg'or xorijiy tendensiyalarni hisobga olgan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ko'rgazmali va interfaol o'quv-uslubiy bazani shakllantirish;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish;

ta'lim muassasalari va yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida keng qamrovli hamkorlik aloqalarini o'rnatish, kursant va tinglovchilarni o'qishga hamda professor-o'qituvchilarni tajriba almashish va malaka oshirish kurslariga yuborish;

Bundan tashqari, «Mahalla fuqaro muhofazasi» tizimi tuzilmalari yig'ma guruhlarini tegishli shaxsiy tarkib bilan amalda to'liq jamlash va ularni saqlab turish uchun imtiyoz, rag'bat va mukofotlar ega bo'lishlarini targ'ib qilish, MFY tomonidan rag'batlantirish, taqdirlash yoki imtiyozlar qo'llash choralari ko'rish [4].

Ushbu mexanizmlarning to'liq joriy etilishi favqulodda vaziyatlardan muhofazalanganlik darajasini ko'rsatadi. Favqulodda vaziyatlardan muhofazalanganligiga bir nechta omillar asos bo'lishi mumkin. Jumladan:

favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf manbalarining real holatidan kelib chiqib, zarur chora-tadbirlar belgilangani;

favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlari asosida xavf tahliliga ko'ra obyektlar va hududlar toifasining tasniflangani;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda manzilli profilaktika tadbirlarining tashkil etilgani va ularning natijadorligi;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vazifaga ega bo'lgan organlarning o'z majburiyatlarini bajarishi holati;

favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda yoki ro'y berganda aholini va qutqaruv tuzilmalarini xabardor qilish tizimining tashkil etilgani;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida aholini hamda favqulodda vaziyatlar davlat tizimi subyektlari mas'ul rahbar xodimlarining bilim va ko'nikmalari darajasi;

favqulodda vaziyatlarda korxona va tashkilotlarning barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun tegishli choralar ko'rilgani;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining ilmiy-texnik va innovatsion ta'minlangani hamda raqamlashtirish darajasi;

favqulodda vaziyatlar davlat tizimi subyektlarining malakali mutaxassislar bilan jamlangani;

zamonaviy maxsus texnika va asbob-anjomlar bilan jihozlangani, shuningdek, moddiy-texnik ta'minoti va moddiy resurslar zaxirasi shakllantirilgani.

Yuqoridagilarga asoslanib, favqulodda vaziyatlar tahdidi, xavf manbalari, indikatorlari, ehtimoliy ko'lami va oqibatlaridan kelib chiqib, mahallalar «qizil», «sariq», «yashil» toifalarga ajratilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda har bir mahallada xavf indikatorlari asosida «mahalla yettiligi» hamda sohaviy xizmatlarni jalb qilgan holda manzilli va mavsumiy profilaktika tadbirlari amalga oshirilib, mahalla favqulodda vaziyatlardan muhofazalangan hududga aylantirishga imkoniyat yaratiladi. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida yangi standart, qoidalar va ilmiy tadqiqotlarni joriy etilishi dolzarb muammolardan biri sanaladi, bu esa favqulodda vaziyatlar tahdidi hamda xavfini kamaytirishga erishish imkonini beradi.

Bundan tashqari potensial xavfli va aholi ko'p to'planadigan obektlarda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilinishi bo'yicha vakolatli organlarning mas'uliyati hamda javobgarlik darajasi oshirish hamda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha sohaviy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek sohaga yuqori malakali professor-o'qituvchilar va ekspertlarni jalb etish, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar

o'tkazish bo'yicha mahalliy va xorijiy turdosh ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish eng dolzarb vazifalar biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 20 oktabrdagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PF-185-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/7777239#7783641>, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.10.2025 y., 06/25/185/0956-son.

2. I.S.Malisheva, A.A.Seleznev. Pravovoye regulirovaniye zashiti naseleniya i territoriy ot chs// Jurnal: "Sovremenniyе texnologii obespecheniya grajdanskoy oboroni i likvidatsii posledstviy chrezvichaynix situatsiy" – 2014, - № 4, -S. 337-340. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovaniezashity-naseleniya-i-territoriy-ot-chs>.

3. A.Yaxyoxujayeva, N.Saidxo'jayeva. Zamonaviy sharoitlarda favqulodda vaziyatlarda boshqarish va rejalashtirish tamoyillari va usullari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 2 | 2022 // file:///C:/Users/Acer/Downloads/zamonaviy-sharoitlarda-fav-ulodda-vaziyatlardabosh-arish-va-rezhalashtirish-tamoyillari-va-usullari.pdf

4. A.A. Tursunov, X.R.Razzakov. Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish tadbirlari va ularni yanada takomillashtirish masalalari // Academic Research in Educational Sciences

5. Volume 3 | Issue 3 | 2022, file:///C:/Users/Acer/Downloads/fav-ulodda-vaziyatlardavlat-tizimi-faoliyatini-muvofi-lashtirish-tadbirlari-va-ularni-yanadatakomillashtirish-masalalari.pdf.